

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA IJTIMOY  
KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISHDA  
HAMKORLIKDAGI TA’LIMNING AHAMIYATI**

 <https://doi.org/10.70728/tech.v3.i04.017>

*Malikova Madina Abduraxmon qizi*  
*CHDPU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda hamkorlikdagi ta’limni ta’lim jarayonida samarali tashkil etish metodikasi, uning asosiy tamoyillari va amaliy qo‘llash usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilarda muloqot madaniyati, mas’uliyat, jamoada ishlash, o‘zaro yordam kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** hamkorlikdagi ta’lim, ijtimoiy ko‘nikmalar, kommunikativ kompetensiya, jamoaviy faoliyat, o‘quv jarayoni, pedagogik texnologiya.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldida nafaqat o‘quvchilarga nazariy bilim berish, balki ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirish vazifasi turibdi. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxsdan muloqotga kirisha olish, jamoada ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko‘nikmalar talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilarni birgalikda ishlashga undaydi, o‘zaro fikr almashish, muhokama qilish va muammolarni birgalikda hal qilish imkonini yaratadi.

Pedagogika sohasidagi ko‘plab olimlar hamkorlikdagi ta’limning samaradorligini ta’kidlab o‘tganlar. Xususan, Lev Vigotskiy, Kagan hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy o‘zaro bog‘liqlikni shakllantirishini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, hamkorlikda ishlash jarayonida o‘quvchilar nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Shuningdek, S. Kagan ham hamkorlikdagi o‘qitish metodlari o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqotni rivojlantirishini qayd etadi. Uning tadqiqotlarida guruhli ishlash usullari o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Mamlakatimiz olimlari ham ta’lim jarayonida hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Ta’lim jarayonida hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirish hamda ularning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy darslarda o‘quvchilar ko‘proq o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lumotlarni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa,

hamkorlikdagi ta'lim asosida tashkil etilgan darslarda ular faol ishtirokchi va bilimni birgalikda yaratuvchi subyektga aylanadi.

Hamkorlikdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali o'z fikrlarini erkin bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash, muhokama qilish va umumiy xulosaga kelish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Bunday faoliyat jarayonida har bir o'quvchi ma'lum vazifani bajarish orqali jamoaviy ishga o'z hissasini qo'shadi. Bu esa o'quvchilarda mas'uliyat hissi, o'zaro hurmat va hamjihatlik kabi ijtimoiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Shuningdek, hamkorlikdagi ta'lim dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Guruhli muhokama jarayonida o'quvchilar turli nuqtai nazarlarni solishtiradilar, muammoni birgalikda hal qilishga harakat qiladilar va shu orqali chuqurroq bilimga ega bo'ladilar. Natijada o'quv jarayoni yanada samarali va qiziqarli tus oladi.

Bundan tashqari, hamkorlikdagi ta'lim o'qituvchining rolini ham o'zgartiradi. O'qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilar faoliyatini yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, ularning faoliyatini kuzatish va zarur hollarda maslahat berish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Shu bois ham zamonaviy ta'lim tizimida hamkorlikdagi ta'limni dars jarayoniga joriy etish o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

**Metodologiya.** Ijtimoiy ko'nikmalar shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalar hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:



### 1-rasm. Shaxs rivoji uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalar (kompetensiyalar)

**Natijalar.** Keltrilgan natijalardan ma'lum bo'ladiki, Hamkorlikdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali bir-birini tinglash, fikr bildirish va muhokama qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

#### *Hamkorlikdagi ta'limni amalga oshirish metodikasi*

O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda hamkorlikdagi ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik bosqichlarga amal qilish zarur:

1. Guruhlarni shakllantirish

2. Vazifalarni taqsimlash
3. Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish
4. Natijalarni taqdim etish
5. Baholash va tahlil qilish

### **1-jadval. Hamkorlikdagi ta'kimni tashkil etish bosqichlari**

#### **Hamkorlikdagi ta'lim metodlari.**

Ta'lim jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

“Sherigini top” metodi, “Fikrla, juftliklarda ishla, baham ko‘r” metodi, Brainstorming (aqliy hujum), “Doira” metodi va boshqalar. Mazkur metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikdagi ta'lim metodlari zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda ishlashi, fikr almashishi va birgalikda muammolarni hal qilishiga asoslanadi. Hamkorlikdagi ta'lim jarayonida o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, ma’lum bir vazifani birgalikda bajaradilar. Bu jarayonda har bir o‘quvchi faol ishtirok etadi va umumiy natijaga o‘z hissasini qo‘shadi.

Hamkorlikdagi ta'limning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishdir. Ushbu metod o‘quvchilarning faolligini oshiradi, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Shuningdek, hamkorlikdagi ta'lim o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, yordam va mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Hamkorlikdagi ta'lim metodlarida o‘qituvchi an’anaviy darsdagi kabi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, tashkilotchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlariga ajratadi, ularga topshiriqlar beradi va ish jarayonini nazorat qiladi. O‘quvchilar esa berilgan topshiriqlarni muhokama qilib, birgalikda yechim topishga harakat qiladilar.

Hamkorlikdagi ta'lim metodlari bir necha muhim tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, ijobiy o‘zaro bog‘liqlik tamoyili mavjud bo‘lib, bunda guruh a’zolari umumiy maqsadga erishish uchun bir-biriga yordam berishlari zarur. Ikkinchidan, har bir o‘quvchining shaxsiy javobgarligi ta’minlanadi, ya’ni har bir kishi topshiriqning ma’lum qismini bajarishi kerak. Uchinchidan, o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot va fikr almashish muhim o‘rin tutadi. To‘rtinchidan, guruh ishining natijasi birgalikda baholanadi.

Hamkorlikdagi ta'lim metodlariga turli usullar kiradi. Masalan, kichik guruhlarda ishlash usuli keng qo‘llaniladi. Bu usulda o‘quvchilar 3–5 kishidan iborat guruhlariga bo‘linadi va ma’lum topshiriq ustida birgalikda ishlaydi. Yana bir mashhur usul — “Aqliy hujum”. Bu usulda o‘quvchilar muammoni hal qilish uchun ko‘plab g‘oyalar bildiradilar va eng maqbul yechimni tanlaydilar.

Shuningdek, “Sherigini top” usuli ham hamkorlikdagi ta’limda muhim ahamiyatga ega. Bu usulda mavzu bir necha qismlarga bo‘linadi va har bir guruh o‘z qismiga javobgar bo‘ladi. Keyinchalik guruh a’zolari o‘z bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘rib, mavzuni to‘liq o‘zlashtiradilar. Bundan tashqari, munozara, debat va rolli o‘yinlar ham hamkorlikdagi ta’lim metodlariga kiradi.

**Muhokama.** Hamkorlikdagi ta’lim metodlarining afzalliklari juda ko‘p. Avvalo, bu metod o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Ular faqat tinglovchi bo‘lib qolmay, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar bir-biridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa bilimlarni yanada mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi. Hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilarning muloqot madaniyatini, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu metod o‘qituvchidan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. O‘qituvchi darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, guruh ishini samarali tashkil etishi va barcha o‘quvchilarning faol qatnashishini ta’minlashi kerak. Agar bu jarayon to‘g‘ri tashkil etilsa, hamkorlikdagi ta’lim dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Hamkorlikdagi ta’limning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, pedagogika sohasidagi tadqiqotlar hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish bilan birga ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Amerikalik pedagog olimlar David Johnson va Roger Johnson hamkorlikdagi ta’limni o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali umumiy maqsadga erishishga qaratilgan o‘qitish usuli sifatida ta’riflaydilar. Ularning fikricha, bunday jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘z bilimlarini oshiradi, balki bir-birining o‘qishiga ham yordam beradi va shu orqali o‘zaro hamkorlik muhiti shakllanadi.

Pedagog olim R. E. Slavin ham hamkorlikdagi ta’limni “o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam beradigan o‘quv dasturi” sifatida tavsiflaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, hamkorlikdagi o‘qitish metodlari o‘quvchilarning akademik natijalari bilan bir qatorda ularning ijtimoiy munosabatlarini ham yaxshilaydi. Shuningdek, S. Kagan ham hamkorlikdagi ta’lim kichik heterogen guruhlarda tashkil etilishini va unda barcha o‘quvchilar umumiy maqsad sari birgalikda ishlashini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bunday faoliyat o‘quvchilarning muloqot qilish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini kuchaytiradi hamda ularning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday jarayonda o‘quvchilar muammolarni birgalikda hal qilish, fikr almashish va umumiy qarorga kelish ko‘nikmalarini egallaydilar.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar ham ta’lim jarayonida hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish muhimligini ta’kidlaydilar. Masalan, O‘. Tolipov va M. Usmonboyeva, N.G‘.Dilovalar ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini

qayd etadilar. Shuningdek, R. Ishmuhamedov ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish va ularni hamkorlikda ishlashga o'rgatishda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Demakki, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hamkorlikdagi ta'lim dars jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, hamkorlikdagi ta'lim o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur ta'lim texnologiyasi o'quvchilarni jamoada ishlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, boshqalarning fikrini hurmat qilishga va muammolarni birgalikda hal qilishga o'rgatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikdagi ta'lim jarayonida tashkil etilgan guruhli faoliyat o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi, ularning dars jarayonidagi faolligini oshiradi hamda o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, bunday yondashuv o'quvchilarda mas'uliyat, o'zaro hurmat, hamjihatlik va o'zaro yordam kabi muhim ijtimoiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Hamkorlikdagi ta'limni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi tomonidan guruhlarni to'g'ri shakllantirish, vazifalarni aniq taqsimlash, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, natijalarni taqdim etish hamda baholash va tahlil qilish bosqichlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu metodik bosqichlar asosida tashkil etilgan dars jarayoni o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Johnson D. W., Johnson R. T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – Boston: Allyn & Bacon, 1999.
2. Slavin R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. – Boston: Allyn and Bacon, 1995.
3. Kagan S. Cooperative Learning. – San Clemente, CA: Kagan Publishing, 2009.
4. Dilova N., Tolipov O. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Ishmuhamedov R. J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2017.